

BARQAROR BIRIKMALAR

Shoymardonova Fotima

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri Termiz davlat universiteti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Til va adabiyotshunoslikda barqaror birikmalar tilning lug'aviy va uslubiy boyligini oshirib, adabiy asarlarda badiiy tasvirning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ushbu tadqiqotda barqaror birikmalarning ta'rifi, adabiyotdagi o'rni va ularni tahlil qilish prinsiplari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Barqaror birikmalar, leksika, frazeologiya, til, tilshunoslik, birlik, gap, so'z.*

O'zbek xalqi qadimdan dono va pand nasihatlariga boy xalqlardan biri hisoblanadi. Xalqimiz azaldan o'zining ijtimoiy hayotidagi g'am-qayg'ulari, shodlik-u quvonchlari, urf-odat-u, rasm-rusumlarini barcha-barchasini maqol va matallarda, ibora va naqllarda aks ettirib kelgan. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi.

Ma'lumki, tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro mustahkam aloqasi natijasida shakllangan, nutqimizga tayyor ko'rinishda qo'llaniladigan, tuzilishi va tarkibi qat'iy bo'lib, yagona ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan til birliklari turg'un birikmalar deb ataladi.

Turg'un birikmalarning mohiyatini to'liq anglash uchun, avvalo, erkin va turg'un birikmalarni bir-biridan ajratib olish lozim, chunki tarkibida ikki yoki undan ortiq so'z bo'lgan birliklar turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, qo'shma so'z, so'z birikmasi, gap, so'z qo'shilmasi, tasviriy ifoda, maqol, matal kabilar. Erkin birikmalar turg'un birikmalardan farqli o'laroq, nutq davomida hosil qilinadi.

Ularning tarkibidagi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar grammatik va semantik yaxlitlikni vujudga keltirib, faqat nutq jarayonida mavjud bo'ladi va vaqtinchalik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Turg'un birikmalar tarkibidagi so'zlar esa o'zaro o'zgarimas qilib bog'langan va nutq jarayoniga qadar mavjud bo'lib, biz ularni nutqimizga tayyor holatda olamiz.

Yevropada barqaror birikmalarni ilmiy asosda o'rganish XX asrdan boshlandi. Barqaror birikmalarning birinchi lug'ati 1929-yilda G.L.Apperson [2. 729] tomonidan nashr qilingan bo'lsa-da, ingliz maqol va matallarini o'rganish bo'yicha birinchi fundamental asar 1931-yilda A.Taylor (The Proverb) [9] tomonidan nashr qilingan. Ushbu asar bugungi kungacha paremiologik tadqiqotlarda standart ish bo'lib qolmoqda va butun dunyo bo'ylab paremiologlar eng ko'p havola qilgan asar hisoblanadi, chunki kitob olimlarning keyingi tadqiqotlari uchun muhim takliflar bergan.

O'zi poliglot bo'lgan Taylor kitobini yozish davomida ko'plab xorijiy tillardagi maqollarni keltirdi, ularni ingliz tiliga tarjima qilgan bo'lsa ham, maqollarni asl tillarida keltirishi, taqqoslashi paremiologiya va folklorning regional, milliy va xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng bu boradagi tadqiqotlar ancha kengaydi.

Taylor kitobda paremiologiyani batafsil sharhlaydi, maqollarning tuzilishi, turlari, variantlari hamda maqol, matal va xalq rivoyatlari o'rtasidagi munosabat haqida bahs yuritadi. Shuningdek, maqollarning mazmuni ko'rib chiqilib, ularda urf-odat va xurofotlar, tarixiy-madaniy masalalar, huquqiy tushunchalar, etnik yoki milliy stereotiplarning aks etishi izohlanadi.

Maqollarda metafora, personifikatsiya, parallelizm, qofiya kabi stilistik vositalar ko'rib chiqiladi, adabiyotdagi vazifasiga urg'u beriladi hamda ularda milliy, etnik va axloqiy xususiyatlarning aks etishi muhokama qilinadi.

Barqaror birikmalarga ibora (frazologizm)lar, tasviriy ifoda (parafraza)lar, maqol, topishmoq, aforizmlar, evfemizmlar kiradi. Bugungi kunda barqaror birikmalardan ibora, tasviriy ifoda, evfemizmlarga til birligi sifatida, maqol va topishmoqlarga esa nutq birligi sifatida qaralmoqda. Mutaxassislar aniq ilmiy mezonlarga suyanib, frazeologik birlik deb so'zlarning barcha tur turg'un birikmalarini emas, balki shulardan bir qismini oladilar.

Ya'ni so'zlarning barqaror birikmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shartligini ta'kidlaydilar. Barqaror birikmalarni so'z birikmalaridan (erkin birikmalardan) farqlash lozim. Barqaror birikmalar ko'chma ma'noli birikma bo'lib, ular ko'proq ekstralingvistik omilning ta'sirida voqelashadi. So'z birikmalari esa asosan lingvistik omil bo'lib, ularning mazmun-maqسادi aniqlikka qaratiladi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi so'z birikmalari ko'chma va ekstralingvistik maqsadlar asosida turg'un birikmaga aylanishi ham mumkin: boshiga ko'tarmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, bel bog'lamoq, bosh ko'tarmoq, qo'l ko'tarmoq, ko'z yummoq, qo'l qo'ymoq kabilar.

Bu birikmalarning ham erkin, ham turg'un birikma sifatida shakllanishida matnning roli katta. Og'zi qulog'ida, to'nini teskari kiymoq, jon bermoq, oq ko'ngil, ko'ngli tog'dek o'smoq, tumshug'ini ezmoq kabi iboralarning shakllanishida esa faqat lingvistik omillar (kuzatish, harakat va holat, sezgi) asos qilib olingan. Shu kungacha nutqimizda ishlatilib kelinayotgan barqaror birikmalar so'zni tasviriy va ta'sirchan ifodalash, jonlantirish maqsadida ishlatilsada, biroq ular alohida -alohida lingvistik hodisalardir. Barqaror birikmalar bir nechta so'zdan iiborat bo'lishi, semantik jihatdan bo'linmasligi, alohida gap bo'lagi bo'lib kela olishi bilan bir-biriga o'xshab ketadi.

Adabiyotda barqaror birikmalar personajlarning nutqini jonlantiradi, ularning xulq-atvori va ichki kechinmalarini yanada yorqin ochib berishga yordam beradi. Badiiy asarlarda mustahkam birikmalardan foydalanish orqali muallif o'z fikrini yanada aniq va estetik ifodalashga erishadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodida "Ko'ngul

oynasi" yoki "Ishq gulshani" kabi iboralar ko'p qo'llanilib, ular ma'naviy va falsafiy mazmunga ega.

Barqaror birikmalar tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ularning o'rganilishi til tizimidagi muhim birliklardan biri sifatida qoraladi. Ushbu birliklar, odatda, tarkibiy va semantik yaxlitlikka ega bo'lgan, doimiy shaklda qo'llaniladigan iboralar hisoblanadi. Bunday birikmalar xalqning lingvokulturologik merosi, estetik tafakkuri va tarixiy tajribasi mahsuli bo'lib, ularning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonning natijasidir.

Barqaror birikmalarining yana bir muhim jihati – bu ularning semantik yaxlitligidir. Birikmaning har bir komponenti individual ma'nosidan uzilib, umumiy ma'noni anglatadi. Ya'ni, birikmaning har bir elementi mustaqil semantik yuk tashimaydi, aksincha, ularning birikishi orqali yangi, yaxlit ma'no hosil bo'ladi. Masalan, "yuragi og'ziga kelmoq" frazemasi shaxsning kuchli hayajon yoki qo'rquv holatini ifodalaydi, ammo tarkibiy qismlari – "yurak" va "og'iz" alohida semantik yondashilganda butunlay boshqa tushunchalarni bildiradi. Frazеologiyada bu holat "frazеologik ma'no yaxlitligi" deb yuritiladi. V.V. Vinogradov ushbu hodisani "frazеologik birdamlik" tushunchasi orqali izohlaydi. Unga ko'ra, barqaror birikmalarni tashkil etuvchi so'zlar o'z leksik mustaqilligini yo'qotadi va yangi tushuncha hosil qiladi.

Barqaror birikmalar til va adabiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular asarning obrazlilik va mazmunini boyitadi. Ularning lingvistik va adabiy jihatdan chuqur o'rganilishi adabiyotshunoslikka katta hissa qo'shadi. Bu birikmalar nafaqat tilning badiiy qudratini kuchaytiradi, balki o'z vaqtida ijtimoiy va madaniy muhitni aks ettiradi, asarlarning chuqur ma'nosini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Xullas, tilimizdagi barqaror birikmalar ko'chim asosida paydo bo'lib, ular tilning frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Ularni tadqiq etish, bir-biridan farqlash o'zbek tilini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati T,1992
2. N.Erkaboyeva O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami T,2023
3. D.Andaniyozova Hozirgi o'zbek adabiy tili T,2016
4. Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 11-12.
5. Ganiyeva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish). Fil, fan, fals, dok, diss. Farg'ona, 2017, 17-bet.